PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

QASHQADARYO GAZETASINING JANR XUSUSIYATLARI: TARIXIYLIK VA ZAMONAVIYLIK SINTEZI

Sadoqat Raxmatova
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
“Axborot xizmati va jamoatchilik
bilan aloqalar” kafedrasi o‘qituvchisi
sadoqat.rahmatova97@gmail.com
+998919554446

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mediakonvergensiya jarayonlarining hududiy matbuot janrlar tizimiga ko‘rsatayotgan ta’siri Qashqadaryo viloyati nashrlari misolida tadqiq etilgan. Tadqiqotda 1930-1932-yillardagi arxiv materiallari hamda 2026-yilning zamonaviy tendensiyalari qiyosiy tahlil qilinadi. Muallif an’anaviy janrlardan “platformalashgan”, gibrid va servis janrlariga o‘tish qonuniyatlarini ochib beradi, hududiy matbuotning kontentni diversifikatsiyalash va raqamli vizuallashuv borasidagi muammolari va istiqbollarini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: mediakonvergensiya, hududiy matbuot, platformalashgan janrlar, shior-maqola, storytelling, longrid, servis jurnalistikasi, infografika.

ABSTRACT

This article examines the impact of media convergence on the genre system of the regional press, using the publications of the Kashkadarya region as a case study. The research provides a comparative analysis of archive materials from 1930-1932 and current media trends in 2026. The author highlights the transition from traditional genres to “platformed”, hybrid, and service genres, while identifying the challenges and prospects of regional press in content diversification and digital visualization.

Keywords: media convergence, regional press, platformed genres, slogan-article, storytelling, longread, service journalism, infographics.

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуется влияние процессов медиаконвергенции на жанровую систему региональной прессы на примере изданий Кашкадарьинской области. В исследовании проводится сравнительный анализ архивных материалов 1930-1932 гг. и современных медиатрендов 2026 года. Автор раскрывает закономерности перехода от традиционных жанров к “платформенным”, гибридным и сервисным жанрам, а также определяет проблемы и перспективы региональной прессы в сфере диверсификации контента и цифровой визуализации.

Ключевые слова: медиаконвергенция, региональная пресса, платформенные жанры, статья-лозунг, сторителлинг, лонгрид, сервисная журналистика, инфографика.

Bugungi kunda mediakonvergensiya jarayonlari hududiy matbuotning an’anaviy tizimini tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Kontentning bir vaqtni o‘zida bosma nashr, veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlarda diversifikatsiyalashgan holda tarqatilishi janr masalasini nafaqat ijodiy, balki tahririyatning texnologik va bozor strategiyasini belgilovchi asosiy omiliga aylandi[1]. Konvergensiya sharoitida

[1] Jenkins, H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide / H. Jenkins. — New York : New York University Press, 2016. — 384 p. P. 41-43.

janrlararo chegaralar o‘zgarib, “platformalashgan janrlar” tushunchasi yuzaga keldi. Endilikda janrni aniqlashda klassik mezonlarga (maqsad va mavzu) qo‘shimcha ravishda interfaollik va multimediaviylik (matnning foto, video va infografika bilan boyitilishi) talablari ham qo‘shilmoqda.

Janriy taraqqiyotning tub mohiyatini anglash uchun viloyat matbuotining shakllanish davriga nazar tashlash joiz. Xususan, 1930-1932-yillarda nashr etilgan **“Qashqadaryo” (sobiq “Yengish”)** gazetasi materiallari bu borada muhim empirik manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘sha davr matbuoti quyidagi o‘ziga xos janriy xususiyatlari bilan ajralib turgan:


ekin mə’rəkəsi
ekiş frontigə şaşılış!

Siyosiy va targ‘ibot-tashviqot janrlar. 1930-yillar matbuoti uchun shior-maqola janri xos bo‘lib, u muallifsiz, qisqa va imperativ (buyruq) ohangidagi matnlardan tashkil topgan. Masalan, “1930-yil 5-martdagi “Erkin frontiga xato”! “Bolsheviklarcha sur’at bilan ishlaymiz” nomli materialda matnning 60% qismini siyosiy buyruqlar, 20% ni statistik ko‘rsatkichlar va 20% qismini shaxsiy shikoyatlar tashkil etgan[2]. Bu turdagi materiallar kollektivlashtirish jarayonlarini mafkuraviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan.


Kim kəв və jaxşь İşləsə u Kəв --mol haq aladь
JENIŞ
Xajraat punktida hajran qalarlıq oprılış var

Tahliliy-tanqidiy va iqtisodiy janrlar. Gazetaning arxiv sonlarida (xususan, 1932-yil 28-oktabrdagi 59-son) qishloq xo‘jaligi sohasidagi muammolar tahliliy maqola janrida yoritilgan. “Xayrabat punktida juda katta mehnat faolligi kuzatilmoqda” sarlavhali materialda iqtisodiy tahlilning quyidagi elementlari kuzatiladi:

Faktologik asos – paxta, g‘alla va beda ekinlari bo‘yicha aniq statistik raqamlar (masalan, davlatga topshirilgan 562 ming miqdordagi mahsulot) keltirilgan.

Tanqidiy yondashuv – reja bajarilishidagi sustkashliklar, hosilni saqlash sharoitining yo‘qligi sababli 1000 sentner mahsulot yo‘qotilishi xavfi “muammo, sabab, oqibat” mantiqiy tizimida tahlil qilingan.

Ijtimoiy tahlil – kolxozlarda daromadning “mehnat kuni” asosida adolatli taqsimlanishi masalasi tahliliy ohangda bayon etilgan[3].


ekin mə’rəkəsi
təşkilavь ystymlik bilən
kolxozcılar, natraqlar, komnaqal orta dıj qanlar-muştumzorlarnıq orınlarınıq ozgortiş ycyn qıladıroşan xərəkətlərigə keskin zərnə nerəjlik!
ekiş fırontıda
rajon ekin komisijalari işakrilik neşjalbaşıdan naş tarihlar
pillə uruqı kompənijəsi xavıf astıda
tyt dərəxtlərini mərxəmətsiz nasıl qıladılar
mərxəmətsiz nasıl
nalşaveklərcə nəçərəmiz
ekin xasilinin gərəvi

Ijtimoiy-publitsistik va ritorik janrlar. 1930-yil 10-martdagi “1930-yillar paxta tizimi va kolxoz xotin-qizlarining ishtiroki” nomli maqolada ijtimoiy portret elementlari ustuvorlik qiladi[4]. Unda ayollarning nafaqat mehnat jarayonidagi, balki siyosiy tarbiya va boshqaruv tashkilotlaridagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, gazetaning 1930-yil 1-apreldagi 8-sonida diniy va siyosiy terminlar qorishmasidan iborat (masalan, “Bismillah ir-Rahman ir-Rahim” iborasi bilan boshlangan siyosiy sharhlar) o‘ziga xos ritorik xabarlar janri mavjudligi aniqlandi[5].

Bundan ko‘rinib turibdiki, 1930-yillar Qashqadaryo matbuoti janrlar tizimi o‘ta markazlashgan va majburiy xarakterga ega

[2] “Ekin frontiga xato! Bolsheviklarcha sur’at bilan kolxoz quramiz!” – Qashqadaryo gaz., 1930-yil 5-mart, №5 (1-b.). Red. kollektivi. O‘zbekiston Milliy arxivi, f. R-62, op. 12, d. 45.

[3] Yengish gazetasi.– 1932-yil 28-oktabr. – № 59 (69). – “Xayrabat punktida juda katta mehnat faolligi kuzatilmoqda”.

[4] 1930-yil 10-mart. 1930-yillar paxta tizimi va kolxoz xotin-qizlarining ishtiroki // Qashqadaryo gazeta.– 1930. –№ 2

[5] Qashqadaryo gazetasi. - Qashqadaryo okrugi Ekin komissiyasining 5 kunlik gazetasi. – 1930 yil 1 aprel. – № 8.

bo‘lsada, u davrning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini (resurs yetishmasligi, reja va amaliyot tafovuti) hujjatlashtirishda fundamental manba bo‘lib xizmat qilgan. O‘sha davr matbuotida tahririyat mas’uliyatini shaxslar emas, balki partiya organlari o‘z zimmasiga olganligi sababli aksariyat maqolalar muallifsiz chop etilgan. Bu davr matbuoti o‘ta markazlashgan va muallifsiz harakterga ega bo‘lsada, bugungi tahliliy jurnalistika uchun faktlarga tayanish uslubini shakllantirib bergan baza hisoblanadi.

Bugingi kunda viloyat nashrlari o‘sha tarixiy an’analarni saqlab qolgan holda, mafkuraviy buyruqbozlikdan professional storytelling va xolis tahlil formatiga o‘tmoqda. 2026-yil aprel oyi sonlari tahlili nashrlarning quyidagi yangi qirralarini ko‘rsatadi:

Storytelling (Hissiy hikoyachilik) - voqelikni quruq bayon qilmay, inson taqdirlari orqali yoritish[6]. Bunga misol tariqasida “Germaniyaga ketish niyatidagi yigit dramasi” tamoyillarining ustuvorlik qilishi kiradi.

Longrid (Katta hajmli mutolaa) - murakkab ijtimoiy-ma’rifiy mavzular, xususan, Amir Temur siymosiga bag‘ishlangan turkum maqolalar muayyan tadqiqot asosida yaxlit holatda taqdim etilmoqda.

Global Monitoring - viloyat o‘quvchisini dunyodagi oziq-ovqat narxlari va siyosiy jarayonlardan xabardor qilib borish orqali hududiy nashrning dunyoqarash ko‘lami kengaytirilmoqda.

Shu bilan birga, tahlillar nashrning kamchiligi sifatida **data-jurnalistika** va **infografika** elementlarining yetishmasligini ko‘rsatadi. Maqolalarda raqamlar (aholi soni, ko‘rsatkichlar) keltirilsa-da, ular vizual tahlil qilinmaydi. Ushbu vizuallashuv tanqisligi murakkab ma’lumotlarni oddiy diagrammalar orqali berish amaliyotining hali to‘liq shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Gibrid va servis janrlari - “murakkab rasmiy qarorlarni aholiga sodda tilda tushuntiruvchi “explainer” (tushuntirish) kabi gibrid janrlar faollashmoqda[7]. Bundan tashqari “agrar hudud ehtiyojidan kelib chiqib, ob-havo, subsidiya va kredit masalalariga oid **servis jurnalistikasi** ham rivojlanmoqda[8].

Bundan ko‘rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyati nashrlarining istiqboldagi strategiyasi kuchli storytelling va longrid an’analarini raqamli vizualizatsiya (infografika) bilan birlashtirishdan iborat. Natijada an’anaviy publitsistikaning jozibasini saqlab qolgan holda, zamonaviy auditoriya diqqatini jalb qilish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, 1930-yillardan boshlangan Qashqadaryo hududiy matbuotining janrlar tizimi qariyb bir asrlik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Siyosiy buyruq va muallifsizlikka asoslangan shior-maqolalardan bugungi erkin, inson omilini birinchi o‘ringa qo‘yuvchi professional jurnalistika shakllariga o‘tildi.

Bugungi kunda hududiy nashrlarning istiqboldagi eng to‘g‘ri strategiyasi kuchli tomonlari bo‘lgan storytelling (hissiy hikoyachilik) va longrid (chuqur tahliliy mutolaa) an’analarini zamonaviy raqamli vizualizatsiya (infografika, data-vizual) imkoniyatlari bilan integratsiya qilishdan iboratdir. An’anaviy bosma publitsistikaning tahliliy jozibasini saqlab qolgan holda, internet platformalarining multimediaviylik va interfaollik xususiyatlaridan unumli foydalanishgina raqamli asrda hududiy matbuotning raqobatbardoshligini ta’minlaydi va yangi avlod auditoriyasi diqqatini jalb qila oladi.

---

[6] Ta’lim Xabarlari. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun storytelling mashg‘uloti. — 2025. https://ta’limxabarlari.uz/60744.

[7] Franklin, B. The Future of Journalism: In an Age of Digital Media and Economic Uncertainty / B. Franklin. London: Routledge, — 2021. — 240 p. P. 32-35.

[8] Deuze, M. Beyond Journalism: Theorizing the Transformation of Journalism / M. Deuze // Journalism.– 2020. – № 21(7). P. 93-95. – DOI: 10.1177/1464884920912064.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Yengish” gazetasi, 1930-yil 1-aprel, №8 soni.
2. “Yengish” gazetasi, 1930-yil 5-mart soni. Arxiv materiallari.
3. “Yengish” gazetasi, 1930-yil 10-mart soni.
4. “Yengish” gazetasi, 1932-yil 28-oktabr, №59 soni.
5. Mediakonvergensiya va hududiy matbuot strategiyalari. Toshkent, 2024.
6. Qashqadaryo viloyat nashrlari monitoringi, 2026-yil aprel.
7. Servis jurnalistikasi va hududiy ehtiyojlar. Ilmiy to‘plam, 2025.
8. Zamonaviy jurnalistikada gibrid janrlar tadqiqi. Jurnalistika jurnali, 2025.